



SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH HISOBIGA RAQOBAT MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

PhD **Donaboyev Jahongir**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-6192-0787

jaxongir.donabaev@soliq.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali mamlakatda raqobat muhitini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Soliq ma'murchiligi tizimidagi mavjud muammolar, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri va raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Xalqaro tajribada soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan usullar hamda ularning raqobat muhitiga ijobiy ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida soliq ma'murchiligini soddalashtirish, raqamlashtirish va shaffoflikni kuchaytirish orqali tadbirkorlik subyektlari o'rtasida teng sharoit yaratish imkoniyatlari asoslab beriladi. Olingan natijalar asosida raqobat muhitini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, raqobat muhiti, soliq tizimi, raqamlashtirish, shaffoflik, tadbirkorlik, xalqaro tajriba.

ПУТИ РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ ЗА СЧЁТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

PhD **Донабоев Жахонгир**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития конкурентной среды в стране посредством совершенствования налогового администрирования. Проанализированы существующие проблемы в системе налогового администрирования, их влияние на деятельность субъектов предпринимательства и факторы, влияющие на уровень конкурентоспособности. Изучены применяемые в международном опыте методы повышения эффективности налогового администрирования и их положительное влияние на конкурентную среду. Также обоснованы возможности создания равных условий для субъектов предпринимательства путем упрощения, цифровизации и повышения прозрачности налогового администрирования в условиях Узбекистана. На основе полученных результатов разработаны научно-практические предложения по дальнейшему развитию конкурентной среды.

Ключевые слова: налоговое администрирование, конкурентная среда, налоговая система, цифровизация, прозрачность, предпринимательство, международный опыт.

WAYS TO DEVELOP A COMPETITIVE ENVIRONMENT THROUGH THE IMPROVEMENT OF TAX ADMINISTRATION

PhD **Donaboyev Jahongir**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article discusses the issues of developing a competitive environment in the country by improving tax administration. The existing problems in the tax administration system, their impact on the activities of business entities and factors affecting the level of competitiveness are analyzed. The methods used in international experience to improve the efficiency of tax administration and their positive impact on the competitive environment are studied. Also, the possibilities of creating equal conditions for business entities by simplifying, digitizing and increasing transparency of tax administration in the conditions of Uzbekistan are substantiated. Based on the results obtained, scientific and practical proposals for further developing the competitive environment are developed.*

Keywords: *tax administration, competitive environment, tax system, digitization, transparency, entrepreneurship, international experience.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobat muhiti mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqobat muhiti qanchalik samarali shakllantirilsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyati shunchalik barqaror rivojlanadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hamda xizmatlar sifati oshadi. Shu nuqtai nazardan, soliq tizimi va soliq ma'murchiligining samaradorligi raqobat muhitini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda soliq siyosatini modernizatsiya qilish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq turlari qisqartirilishi, elektron soliq xizmatlarining joriy qilinishi tadbirkorlar uchun teng raqobat sharoitini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligida ayrim byurokratik to'siqlar, ma'lumotlar bazasining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi va soliq organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro ishonchning to'liq shakllanmaganligi kabi muammolar mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish hisobiga raqobat muhitini rivojlantirish yo'llari va strategik rivojlanishini yo'naltirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Kurnosova (2009) raqobat muhiti-bu bozor subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishning institutsional shartlari. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, "raqobat muhiti" tushunchasi rivojlangan infratuzilma, moliya, pul-kredit siyosati va tegishli institutlarning ozmi-ko'pmi birlashtirilgan vositalariga ega bo'lgan davlat yoki mintaqaviy tashkilot bilan bog'liq.

Lenginovich (2014) "raqobat muhiti - bu boshqaruvning qonuniy belgilangan me'yorlari va qoidalariga asoslangan, belgilangan natijalarni amalga oshirish natijalarini tezkor monitoring qilish ta'siri ostida o'zgarib turadigan raqobatbardosh tartib maqsadlar.

Porter (1990) konsepsiyasiga ko'ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy rombi"ning to'rtinchi elementi ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o'z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undashi asoslangan. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham qiyinchiliklarsiz muvaffaqiyatga erishishi nazariy jihatdan isbotlangan. Porter kompaniyaning sohadagi mavqeyi raqobatbardosh ustunlik bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Soliq ma'murchiligi vakolatli organlarning soliq nazorati funksiyalarini amalga oshirish va soliqqa oid huquqbuzarlik uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi (Orlov, 2006).

Ashurova (2017) o'z izlanishlarida "Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish"ni o'rgangan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida raqobatbardosh yuqori sifatli mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini to'yintirish, tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, buning asosida bandlikni ta'minlash, aholi daromadlari va farovonlik darajasini oshirish maqsadida soliq imtiyozlarining amal qilish muddatlarini uzaytirish yuzasidan berilgan takliflar soliqqa tortish amaliyotiga tatbiq etilgan.

Kalakov (2012) ham "soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning yagona metodikasi" mavjud emasligi kabi salbiy holatlarni hamda imtiyozlarning samaradorligini baholash umumdavlat ahamiyatidagi jiddiy masala ekanligini qayd etgan.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish va uning raqobat muhitiga ta'siri masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Klassik iqtisodchilar – Smith, (1776)Ricardo va Mill asarlarida soliq tizimining adolat, soddalik va samaradorlik tamoyillari asosida tashkil etilishi iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil sifatida ta'kidlangan.

Zamonaviy tadqiqotlarda Stiglitz (2000), Musgrave (1989) va boshqa olimlar soliq ma'murchiligini samarali yo'lga qo'yish iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoit yaratish va korrupsiya xavfini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadilar. OECD (2023) va Jahon banki (2020) ekspertlari esa davlatlarda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, onlayn monitoring tizimlarini joriy etish hamda soliq to'lovchilar uchun soddalashtirilgan xizmatlarni kengaytirish orqali biznesning raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

MDH mamlakatlari tajribasiga nazar tashlaganda, Rossiya, Qozog'iston va Gruziya olimlari (Belov (2021), Karmanov, Abdyrov (2020) va b.) soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish natijasida tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratilgani, raqobat muhiti yaxshilangani va "soya iqtisodiyoti" ulushi qisqarganini qayd etadilar.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqobat muhitini yaxshilash mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq ma'murchiligi esa biznes subyektlari uchun teng sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash va ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ahamiyatlidir. O'zbekistonda soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar raqobat muhitini yaxshilashga qanchalik ta'sir qilayotganini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-son Qonunining 6-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar bo'yicha 2020-yil 1-iyulga qadar ma'qullangan, to'liq yoki qisman xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlarning mablag'lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan loyihalar doirasida yuridik shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shuningdek ularni olib kirishga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i solinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasi qirq beshinchi qismiga asosan, budget tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan (keyingi o'rinlarda XMI/XHMT) jalb qilingan hamda jalb qilinadigan

davlat tashqi qarzi hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari uchun XMI/XHMTdan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan XMI/XHMTning mablag'lari mustasno) hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Mazkur vaqtinchalik QQS imtiyozi XMI/XHMTning 2020-yil 1-iyuldan keyingi ma'qullangan qarz shartnomalariga nisbatan va ular bo'yicha 2023-yil 16-noyabrdan e'tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shu munosabat bilan, xorijiy pudratchilar joriy yilning yanvar oyidan boshlab loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlarni qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozlaridan foydalangan holda realizatsiya qilib, ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tovar(xizmat)lar xarid qilinayotganda kontragentlariga QQS to'lab berish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 124-son qaroriga asosan Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lining 964-1204 km (240 km) qismini rekonstruksiya qilish" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ma'lumot uchun: Obyekt Qoraqalpog'iston Respublikasining olis Qo'ng'iro't tumanida joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 383,4 mln.dollarini, shundan OTB krediti 274,2 mln.dollar va 109,2 mln.dollar O'zbekiston Respublikasi ulushi, ya'ni 81,4 mln. AQSH dollari soliq va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha imtiyozlar hisobiga qoplanishi belgilangan.

Mazkur loyiha doirasida "Nort Vest Konstraksh MCHJ" DM bilan 2021-yil 5-aprelda 107,6 mln. AQSH dollarlik, "China Road and Bridge Corporation" korxonasi bilan 103,8 mln. AQSH dollarlik shartnoma imzolangan.

Loyiha doirasida xarid qilingan tovar(xizmat)lar uchun 2023-yil 16-noyabrdan 2024-yil 1-sentabrga qadar "Nort Vest Konstraksh MCHJ" DM tomonidan 16,2 mlrd.so'm, "China Road and Bridge Corporation" kompaniyasi tomonidan 10,7 mlrd.so'm QQS summasi to'langan.

Misol uchun: yirik tovar va xizmatlar yetkazib beruvchi korxonalar "O'zbekiston temir yo'llari" AJga 8,1 mlrd.so'm, "Aziya trans oil" MCHJga 2,2 mlrd.so'm, "Qizilqumsement" AJga 1,4 mlrd.so'm, jami 11,7 mlrd.so'm QQS summasi to'lab berilgan.

Muammo Soliq kodeksining 267-moddasiga muvofiq, realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar soliqdan ozod etilgan taqdirda, bunday tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish jarayonida to'lovchi tomonidan to'langan QQS summasi hisobga olinmaydi.

Loyiha QQSdan ozod qilingani va mahalliy tovar hamda xizmatlarni xarid qilishda ushbu soliqni hisobga olish imkoni yo'qligi sababli, asosan QQSdan ozod qilingan import mahsulotlardan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqroq hisoblanadi.

Shu bilan birga, loyiha ishtirokchilari berilgan imtiyozlardan qanday foydalanayotgani, kelayotgan tovar va xizmatlarning aynan loyihaga tegishli qismini aniqlash va ular bo'yicha QQS to'g'ri hisoblanganligini nazorat qilish imkoniyati mavjud emas.

Ya'ni, ushbu korxonalarga imtiyoz berilishi natijasida loyiha doirasida ishtirok etuvchi korxonalar soni ko'pligi hisobiga ularning foydalanayotgan imtiyozlari miqdorini qarorda nazarda tutilgan miqdordan oshib ketganligini nazorat qilish imkoniyati mavjud emas.

Bu o'z navbatida mazkur soliq imtiyozidan noto'g'ri (ortiqcha) foydalanish holatlariga olib kelmoqda. Bunda, qarorda belgilangan miqdordagi QQS summasini belgilangan tartibda nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Muammoni yechimi Xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirishda teng raqobat muhitini yaratish, loyiha qiymati sun'iy oshishi

hamda QQS zanjiri uzilishini oldini olish maqsadida imtiyozni bekor qilish va QQSni qoplab berish tizimiga o'tish.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida teng raqobat muhitini ta'minlash to'g'risida" Farmoni loyihasi ishlab chiqish.

Mazkur loyihada 2025-yil 1-sentyabrdan ushbu imtiyoz bekor qilinib, to'langan QQS summasini qoplab berish tartibiga qaytishlik belgilash.

XMI/XHMT mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida bajarilayotgan ishlar uchun zarur bo'lgan tovar(xizmat)lar xarid qilinayotganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini budjetdan qoplab berish tartibiga qaytish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har yili yil yakunida keyingi yil uchun soliq-budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda budjet parametrlari tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1011-son), "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1014-son) hamda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1013-son) qabul qilindi. Mazkur qonun hujjatlari bilan Soliq kodeksining 37 ta moddasiga, shuningdek Budjet kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Muammo sifatida soliq yukining ortishi tadbirkorlar va kichik bizneslar uchun soliq yukining ortishi ularning rentabelligini pasaytiradi va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Imtiyozlarning mavjudligining kamligi aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar, jumladan, kreditlarga bo'lgan foiz stavkasi, subsidiyalar va soliq imtiyozlarining cheklanganligi.

Muammoni yechimi sifatida aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar ishga qabul qilingan kambag'al oila a'zolari (ish haqi kamida 1,7 mln so'mni tashkil qilganda) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12%), 1-sentyabrdan 2027-yil 1-sentyabrga qadar tadbirkorlar tomonidan kasbga o'rgatish uchun ishga qabul qilingan maktab, kollej va texnikum o'quvchilariga daromad solig'i hamda ularning oylik ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12%), 2028-yil 1-yanvarga qadar magistral yo'llar bo'yida ko'chma savdoni tashkil qilgan yoshlar (30 yoshgacha) faoliyatining dastlabki 6 oyi davomida soliqlarni to'lashdan ozod etildi.

Soliq imtiyozlarini kengaytirishda kichik va o'rta bizneslarga, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga va yoshlarga yanada ko'proq soliq imtiyozlari berish. Bu tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradi. Kredit shartlarini yengillashtirish orqali tadbirkorlar uchun ipoteka va investitsiya kreditlarini imtiyozli shartlarda, past foiz bilan berilishi ularning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradi. Qo'shimcha subsidiyalar berish bilan xususiy sektorga yangi ishlab chiqarish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha subsidiyalar, grantlar va bevosita moliyaviy yordam ko'rsatish.

Muammo sifatida nashriyot va matbaa soha ishlab chiqarishlari, jumladan, kitoblar, jurnallar, gazetalar va boshqa nashrlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar yetishmasligi. Bu holat ko'pincha, keng auditoriyaga yetishish uchun kerakli tarmoq va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yo'qligiga olib keladi.

Muammoni yechimi sifatida 2029-yil 1-yanvarga qadar nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlar (soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil

etgan) foyda solig'ini to'lashdan ozod etildi. Nashriyot va matbaa korxonalari ixtiyorida 600,0 mlrd so'm mablag'lar qoladi.

Muammo sifatida IT parklar rezidentlari ko'pincha o'z loyihalarini moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy yordam va subsidiyalar yetarli emas, shuningdek, xususiy sektordan investitsiyalarni jalb qilishda ham muammolar mavjud. IT loyihalarini moliyalashtirishga bo'lgan talab oshsa-da, banklar va moliya institutlari ko'pincha yangi va rivojlanishdagi startaplarga ishonishmaydi, bu esa loyihalarining amalga oshirishini qiyinlashtiradi.

Muammoni yechimi sifatida IT park rezidentlariga QQSdan tashqari barcha soliqlarni (foyda, yer, mol-mulk, suv solig'i, aylanma solig'i, ijtimoiy soliq) to'lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar 2040-yil 1-yanvarga qadar (amalda 2028-yil 1-yanvargacha edi) uzaytirildi (14.10.dagi PF-157-son Farmoni). Mazkur imtiyoz eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar va 18 yoshdan oshgan bitiruvchilarning 50 foizdan ortiq qismi eksportchi korxonalarga ishga joylashgan IT ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etildi. Tadbirkorlar ixtiyorida 1 trln so'm mablag'lar qoladi.

2025-yil 1-fevraldan 2040-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan IT park rezidentlarining ta'sischilariga dividend solig'i 5 foiz (amalda 10 foiz) etib belgilandi. Ta'sischilar ixtiyorida 10,7 mlrd so'm mablag'lar qoladi. 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi yiliga 10 mln dollardan oshgan IT park rezidentlariga xizmat ko'rsatgan norezidentlar foyda solig'idan ozod etildi.

Muammo sifatida nodavlat ta'lim tashkilotlarining moliyalashtirish masalalaridagi muammo ularning barqaror faoliyati uchun katta to'sqinlik bo'lib qolmoqda. Davlat tomonidan ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladigan mablag'lar aniq va belgilangan bo'lmasa, ko'p hollarda ularning moliyalashtirish manbalari ishonchsiz va eskirgan. Nodavlat maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va ularning yuqori sifatli ta'lim berishi uchun to'g'ri mablag'lar jalb qilish va sarflash mexanizmi mavjud emas.

Muammoni yechimi sifatida nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari 2030-yil 1-yanvarga qadar (22.11.2024-yildagi PQ-403-son) barcha turdagi soliqlardan (bundan ijtimoiy soliq mustasno), ozod etildi. Bunda bo'shaydigan mablag'lar zamonaviy o'quv qo'llanmalari, asbob-uskunalarini sotib olish, binolarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun maqsadli yo'naltiriladi. Chet el o'qituvchilari va mutaxassisleri daromad solig'i hamda ularning oylik ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliqdan ozod etildi va zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunolari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, adabiyotlar va moddiy-texnika resurslari importi qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi belgilandi. Tadbirkorlar ixtiyorida 350 mlrd so'm mablag'lar qoladi.

Muammo sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish uchun kerakli sarf-xarajatlar boshlang'ichda juda katta bo'lishi mumkin. Ko'pchilik holatlarda, ya'ni quduqlar, shamol turbinalari, yorqinlik panellari va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun qurilmalarni o'rnatish va ularni ishlatish uchun sarf-xarajatlarning yuqori bo'lishi xususiy kompaniyalar va davlat uchun qiyinchilik tug'diradi. O'zbekistonda ishlab chiqarishning qimmatligi va milliy moliyaviy resurslar e'tiborga olinganda, ushbu sohadagi sarmoyalar ancha ortiqcha bo'lishi mumkin.

Muammoni yechimi sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatishni rag'batlantirish maqsadida (16.02.2023-yildagi PQ-57-son), yuridik shaxslar umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan ozod qilindi, ushbu qurilmalar orqali elektr energiyasini ishlab chiqarib umumiy tarmoqqa sotganda foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari kurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran 3 yil mobaynida, kuyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan

kuvvatga eta elektr energiyasini to'plash tizimi bilan quyosh panellari o'rnatilganda esa - ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran 10 yil mobaynida qo'llaniladi. Jismoniy shaxslar 1 kVtdan 100 kVtgacha qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozdan – 750 ming so'm, yer solig'i bo'yicha – 375 ming so'mdan oshmagan miqdorda foydalanishi nazarda tutilmoqda. Mazkur imtiyoz hisobiga aholi va tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 53,4 mlrd so'm mablag' qoladi.

Tadbirkorlarga ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari foydalanishga topshirilgandan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk solig'i bo'yicha 0,9 dan 0,5 gacha pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llash huquqi berildi (23.02.2023-yildagi PQ-69-son). Imtiyoz bino qavatlarini 3 qavat va undan yuqori bo'lganda qo'llaniladi, 6 011 ta obyekt bo'yicha 302,3 mlrd so'mlik soliq imtiyozi qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan budjet subsidiyalari daromad solig'ini hisoblashda jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi. Budjet tashkilotlari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha barcha turdagi soliqlarni to'lashdan 2027-yil 1-yanvargacha (1-yanvargacha qadar edi) qadar ozod qilindi, bundan ijtimoiy soliq mustasno. 2025-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvargacha tadbirkorlik subyektlari foyda solig'ini hisoblashda o'z mablag'lari hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog'liq xarajatlarni 2 yil davomida teng ulushlarda ushbu binolar qiymatining amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlarga kiritishga haqli. Bunda ular ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlarini bepul qabul qilish bo'yicha litsenziya talablarini bajarishlari shart, aks holda bu amortizatsiya chegirmalari Soliq kodeksining 306-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya normalarini hisoblagan holda bekor qilinadi.

2027-yil 1-yanvargacha qadar Prezident qarori bilan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha protez moslamalari va ularning butlovchi, ehtiyot qismlarini respublikamizga olib kirishda QQSdan ozod qilindi. 1-noyabrdan 2026-yil 1-yanvargacha qadar rezident bo'lgan vagonlar (konteynerlar) operatorlarining vagonlarni (konteynerlarni) ijaraga berish bo'yicha aylanmasi QQSdan ozod qilindi. 2025-yil 1-yanvardan mobil aloqa xizmatlariga aksiz solig'i bekor qilindi: (10.02.2021-yildagi PQ-4986-son qarori) Operatorlar ixtiyorida

1 trln so'm mablag'lar qoladi. Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari uchun 2 baravar miqdorda yer solig'ini hisoblash tartibi bekor qilindi. (28.08.dagi PQ-304-son). Fermerlar ixtiyorida 7,1 mlrd so'm mablag' qoladi.

Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiq mahalliy va import aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich tenglashtirish maqsadida (03.06.dagi PF-85-son) 2025-yil 1-yanvardan tamaki mahsulotlari bo'yicha ya'ni sigaretalarning har bir ming donasi uchun ichki bozorda 300 ming so'm va importda 330 ming so'm, 2025-yil 1-iyuldan yagona 340 ming so'mlik aksiz solig'i belgilandi (10 foizlik advalor qismi bekor qilindi) va boshqa tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari oshirildi. Nikotinli suyuqlikning (veypp) 1 ml uchun 2 ming so'm, sigaraga 20 ming so'm, elektron sigaretga 450 ming so'm/kg, chekiladigan, o'rama va chilim uchun 600 ming so'm/kg aksiz solig'i stavkalarini belgilandi.

2025-yil 1-yanvardan alkogol mahsulotlari bo'yicha (1 litri uchun) ya'ni aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 44 ming so'm, importga – stavkani 25 foizga kamaytirib, 76 ming so'm, mahalliy tabiiy vinoga – 5 ming so'm, importga – 14 ming so'm, boshqa mahalliy vinolarga – 6 ming so'm, importga – 20 ming so'm, mahalliy pivoga – 2 ming so'm, importga – 6 ming so'm, mahalliy va import etil spirtiga – 15 ming so'm miqdorida aksiz solig'i stavkalarini belgilandi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab don distillyatiga aksiz solig'i joriy qilindi, shuningdek, texnik spirtni olish uchun sarflanadigan etil spirtining boshlang'ich fraksiyasiga aksiz solig'ini hisoblash tartibi bekor qilindi. Don distillyati 52 foiz hajmli etil spirtini o'zida aks ettiradi. 2025-yil 1-iyuldan boshlab QQS zanjiri uzluksizligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilarni

yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha aylanma uchun qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozini bekor qilindi (18.09.dagi PF-140-son Farmoni), ushbu korxonalarga 77 mlrd so'm imtiyoz berilgan bo'lib, ularga 63 mlrd so'm QQS summasini hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

Budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha 2025-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan stavkasi tovar aylanmasi 500 mln so'mgacha bo'lganda yiliga 30 mln so'm (amalda 25 mln so'm), 500 mln so'mdan yuqori bo'lganda – 40 mln so'm (amalda 34 mln so'm) miqdorida belgilandi. Bunda ushbu soliq rejimi 2026-yil 1-yanvardan bekor qilinadi.

Noturar obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'ining asosiy stavkasini (1,5 foiz) saqlab qolgan holda, soliq bazasini aniqlashda 1 kv. m uchun o'rnatilgan minimal qiymat, Toshkent shahriga – 3,3 mln so'm (amalda 3 mln so'm), Nukus shahri va viloyat markazlariga – 2,2 mln so'm (2 mln so'm), boshqa joylarga – 1,3 mln so'm (1,2 mln so'm), jismoniy shaxslarning turar obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning qat'iy miqdorda belgilangan soliq stavkalari 10 foizgacha indeksatsiya qilindi. 1 kub metr qum-shag'alga – 5 ming so'm (amalda 4,2 ming so'm), marmarga – 20 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm), granitga – 30 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm) va tabiiy bezaktoshga – 10 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm) miqdorida soliq stavkasi belgilandi. Bunda, xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi (amalda bunday vakolat mavjud emas);

2025-yil 1-yanvardan boshlab yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar uchun yer solig'i bo'yicha imtiyozni bekor qilgan holda, soliq stavkasi 50 foizga kamaytirildi. (18.09.2024-yildagi PF-140-son Farmoni). Bunda, iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli bog', tokzorlarga nisbatan yer solig'i 3 baravarga oshirilgan holda hisoblanadi. Tadbirkorlarga 2,6 mlrd so'mlik imtiyoz taqdim etilgan.

Suv solig'i stavkalari (05.01.2024-yildagi PQ-5-son), sanoat korxonalari, elektr stansiyalari hamda alkogolsiz va alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilindi. Boshqa tarmoqlardagi korxonalar uchun suv solig'i stavkalari sanoat korxonalariga belgilangan stavkaga tenglashtirilib, yer usti – 700 so'm (amalda 345 so'm), yer osti – 850 so'm (415 so'm) etib belgilandi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida avtomobillarni yuvishda foydalaniladigan 1 metr kub suv uchun soliq stavkasi bir xil - 15 ming so'm (amalda yer osti suv uchun 2 700 so'm, yer usti suv uchun 13 500 so'm) etib belgilandi. Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda 0,5 dan 0,7 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi. Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari mavjud bo'lmaganda 1,1 koeffitsiyent qo'llaniladi. Xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) Kengashlariga suv solig'i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi (amalda bunday vakolat mavjud emas edi)

Tabiiy gazga aksiz solig'i stavkasi 12 foiz (amalda 20 foiz) miqdorida belgilanib, import uchun aksiz solig'i joriy qilinmoqda (20.09.2024-yildagi PQ-329-son qaror). Yakka tadbirkorlar uchun 2025-yil 1-yanvardan boshlab qat'iy belgilangan soliq stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilindi hamda faoliyat turi va joylashgan hududiga qarab eng kam va eng yuqori stavkalar (diapazon) belgilandi. Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga (amalda tuman (shahar) Kengashlari koeffitsiyent belgilashi mumkin) stavkalarni hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha belgilash vakolati berildi.

Jami yillik daromadi 100 mln so'mgacha bo'lgan yakka tadbirkorning xodimlariga daromad solig'i o'rniga yakka tadbirkorlarga belgilangan qat'iy daromad solig'ining 50 foizini to'lash huquqi berildi (amalda oylik ish haqidagi 12 foiz daromad solig'i to'lanadi). Misol uchun, Xonqa tumanidagi dehqon bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qiluvchi

yakka tartibdagi tadbirkor o'zi uchun 60 ming so'm qat'iy soliq to'lagan bo'lsa, yollagan xodimi uchun 1 mln so'm oylik hisoblab, undan 12 foiz stavkada 120 ming so'm soliq to'lagan. Endilikda ushbu tadbirkor o'z xodimi uchun o'zi to'lagan soliqning yarmi, ya'ni 30 ming so'm soliq to'lash huquqiga ega bo'ladi. Tadbirkorlar ixtiyorida 1,9 mlrd so'm qolishi kutilmoqda.

Bozor va savdo majmualaridagi yakka tadbirkorlar o'z xodimlari uchun ijtimoiy soliqni yiliga 375 ming so'm miqdorida to'lashi belgilandi (amalda 2,2 mln so'm). Tadbirkorlar ixtiyorida 0,5 mlrd so'm mablag' qoladi. 2025-yil 1-apreldan boshlab neft mahsulotlariga belgilangan aksiz solig'i stavkalari 10 foizga oshirildi.

Soliq siyosatini takomillashtirish va budjet daromadlarini oshirish bo'yicha jahon savdo tashkiloti talablariga asosan tovarlar eksportidagi foyda va aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha berilgan imtiyoz bekor qilindi (03.06.2024-yildagi PF-85-son Farmon), tarkibida shakar va boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan gazlangan ichimliklarning litriga 500 so'm miqdorida belgilangan aksiz solig'ini 2025-yil 1-apreldan gazlanmagan ichimliklarga ham tatbiq etiladi. Bunda, energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarning 1 litri uchun amaldagi 2 ming so'mlik aksiz solig'i stavkasi saqlab qolindi;

2025-yil 1-yanvardan elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlarga foyda solig'i stavkasi 10 foiz (amalda 7,5 foiz) va aylanmadan olinadigan soliq – 3 foiz (amalda 2 foiz) miqdorida belgilandi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab yil davomida soliq va bojxona imtiyozlarini berish va bekor qilish yoki boshqa ajratmalar stavkalarini kamaytirish va oshirishni nazarda tutuvchi normalarni keyingi yildan boshlab amalga kiritish tartibi o'rnatildi (18.09.2024-yildagi PF-140-son Farmoni).

Ochiq muloqotdagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan (30.08.2024-yildagi PF-132-son) 2025-yil 1-yanvardan mulk huquqi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini va davlat mol-mulkini realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bekor qilindi. Tadbirkorlar ixtiyorida 250 mlrd mablag'lar qoladi. Eksportda qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish uchun bojxona organlarining eksportni tasdiqlovchi elektron ma'lumoti asos bo'lishi belgilandi. Amalda tadbirkorlar bojxona chegara postidagi bojxona organlari muhri qo'yilgan hujjatlarini soliq organlariga taqdim etishmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlashga mo'ljallangan bino va inshootlar joylashgan yerlarga yer solig'ini hisoblash noqishloq yerlar uchun belgilangan stavkaga 0,2 koeffitsiyent qo'llagan holda amalga oshirilishi belgilandi. Fermerlar ixtiyorida 135 mlrd so'm mablag'lar qoladi.

Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan infratuzilma loyihalari doirasida sotib olingan tovar xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Bunda infratuzilma loyihalariga nimalar kirishiga aniqlik kiritilib, faqat elektr, gaz va issiqlik ta'minoti, suv ta'minoti va kanalizatsiya, suv xo'jaligi, yo'l-transport infratuzilmasi, aloqa va telekommunikatsiya, agrologistika, sanitariya jihatdan tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish loyihalari doirasida sotib olingan tovar (xizmatlar)ga 2028-yil 1-yanvarga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi belgilab qo'yildi va mazkur imtiyoz loyiha ishtirokchilariga nisbatan ham tatbiq etilishi belgilab berildi. Umuman olganda mazkur o'zgartirishlar natijasida 3 trln so'm mablag'lar aholi va tadbirkorlar ixtiyorida qolishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligini takomillashtirish raqobat muhitini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Soliq tizimining soddaligi, shaffofligi va samaradorligi tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratadi hamda sog'lom raqobatni kuchaytiradi. O'zbekiston tajribasi shuni anglatadiki, oxirgi yillarda soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq turlarining qisqartirilishi va elektron xizmatlarning

kengaytirilishi tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ayrim byurokratik to'siqlar, soliq organlari faoliyatida ma'lumotlar integratsiyasining yetarli emasligi va tadbirkorlarning soliq tizimiga bo'lgan ishonchi masalalari hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Takliflar: Soliq ma'murchiligini soddalashtirish – bunda soliq to'lovchilar uchun ortiqcha hisobotlar sonini qisqartirish va jarayonlarni birlashtirish zarur.

Raqamlashtirishni kengaytirish – bunda elektron soliq tizimlarini barcha hududlarda joriy qilish, real vaqt rejimida nazorat va tahlilni yo'lga qo'yish.

Shaffoflikni oshirish – bunda soliq organlari faoliyatida ochiqlik tamoyillarini kuchaytirish, soliq to'lovchilarga tegishli ma'lumotlarni erkin olish imkonini berish.

Tadbirkorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash – bunda soliq organlari va biznes vakillari o'rtasida muntazam muloqot va maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirish.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash – bunda ular uchun soliq ma'murchiligini yanada yengillashtirish, imtiyozlar va standartlashtirilgan onlayn platformalar yaratish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdyrov, N. (2020). *Sovremennye tendencii razvitiya nalogovogo administrirovaniya v Kazaxstane*. Almaty: Ekonomika.

Ashurova, N. (2017). *Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Doktorlik ishi. Avtoreferat*. Toshkent.

Belov, A. (2021). *Nalogovoe administrirovanie v usloviyax cifrovizacii*. Moskva: Finansy i statistika.

Davlat soliq qo'mitasi. (2022). *O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha hisobot*. Toshkent.

Kurnosova, E.A. (2009). *Обеспечение конкурентоспособности предприятий сферы услуг: формирование инновационного поведения. Российский экономический интернет журнал*, №1, С. 598–607.

Musgrave, R.A., Musgrave, P.B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. New York: McGraw-Hill.

OECD. (2023). *Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies*. Paris: OECD Publishing.

Porter, M. (1990). *Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy rombi"ning yana 3 ta elementi keltirilgan konsepsiyasi*.

Smith, A. (1776). *The Wealth of Nations*. London: Methuen.

Stiglitz, J. (2000). *Economics of the Public Sector*. New York: W.W. Norton.

World Bank. (2020). *Doing Business Report 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington: World Bank.

Калаков, Р.Н. (2012). *К вопросу об эффективности налоговых льгот: анализ современной практики. Научные труды SWORDL*, №1, С. 34-43.

Ленгинович, С.Г. (2014). *Конкурентная среда: методы исследования. Экономическая наука и практика: материалы III междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2014 г.)*. Чита: Издательство Молодой ученый, С. 88-91.

Орлов, М.Ю. (2006). *Совершенствование налогового администрирования: миф или реальность? Ваш налоговый адвокат*, №6.